

---

# KOSONSOYLIK TADBIRKOR «FAOL TADBIRKOR» KO'KRAK NISHONI BILAN TAQDIRLANDI



## **Kosonsoylik tadbirkor «Faol tadbirkor» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi**

□Prezidentning "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni bilan taqdirlash to'g'risida"gi farmoyishi qabul qilindi.

Quvonarlisi, mukofotlanganlar orasida, tumandoshimiz Sherov Sherzod Abduraximovich - Kosonsoy tumanidagi «AS Group Tex» mas'uliyati cheklangan jamiyati direktori ham bor.

Ma'lumot uchun, ushbu ko'krak nishoni bilan ish o'rinlari yaratish, aholi farovonligini ta'minlashga qo'shgan munosib hissasi hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun faol tadbirkorlar taqdirlanadi.

Sherzodjon So'x tumani farzandi ham hisoblanadi. Bobosi Dodoboy Sherov (joylari jannatda bo'lsin) So'xdan Namangan viloyati Kosonsoy shahriga borib, o'sha yerda umrlarining oxirigacha barkamol avlod ta'lim - tarbiyasi bilan shug'ullanganlar. Yosh tadbirkorning padari buzrukvori Abdurahim Sherov ham ota izidan borib, Kosonsoydagi o'rta-maxsus bilim yurtida rahbarlik qilgan.

Yuzlab nafar So'xlik yoshlar ushbu bilim dargohida tahsil olib, bugun ta'lim jarayonining faol ishtirokchilari hisoblanishadi. Yosh tadbirkorga omadlar tilaymiz!

### **[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-08-18 16:53:25